



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MAISHIY LEKSIKANING LINGVOMADANIY ASPEKTLARI (kiyim-kechak leksikasi misolida)

## LINGUOCULTURAL ASPECTS OF HOUSEHOLD LEXICON IN ENGLISH AND UZBEK (on the example of clothing vocabulary)

**Xoliqova Shahlo O‘ktamovna**

TTYSI, “O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrası,  
katta o‘qituvchi

*E-mail:* halikovashahlo1987@gmail.com

*ORCID:* 0009-0000-4655-1068

*DOI:* [10.52773/tsuull.conf.2026./KZQL8652](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./KZQL8652)

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada maishiy leksikaning lingvomadaniy xususiyatlari, uning xalqning kundalik turmush tarzi, urf-odatları, mentaliteti va milliy qadriyatlarini aks ettirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maishiy leksika til va madaniyat o‘zaro bog‘liqligining muhim ko‘rsatkichi sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida maishiy birliklarning semantik va madaniy jihatlari ochib berilib, ularni lingvomadaniy tadqiq etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *maishiy leksika, lingvomadaniyat, milliy madaniyat, kundalik nutq, etnomadaniy birliklar, mentalitet, madaniy konseptlar.*

**Annotation.** *This article examines the linguocultural aspects of household vocabulary and its role in reflecting everyday life, traditions, mentality, and national values of a people. Household lexicon is analyzed as an important indicator of the close relationship between language and culture. The research reveals semantic and cultural features of household lexical units and provides practical recommendations for their study within linguocultural linguistics.*

**Keywords:** *household vocabulary, linguoculture, national culture, everyday speech, ethnocultural units, mentality, cultural concepts.*

Hozirgi tilshunoslikda til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqani o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, lingvomadaniyatshunoslik doirasida leksik birliklarning milliy-madaniy mazmunini tahlil qilish dolzarb masalaga aylangan. Ushbu jarayonda maishiy leksika alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u xalqning kundalik hayoti, turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlarini bevosita aks ettiradi.

Maishiy leksika tarkibiga ovqat nomlari, kiyim-kechak, uy-ro‘zg‘or buyumlari, marosim va urf-odatlarga oid atamalar kiradi. Ushbu birliklar xalq madaniyatining til orqali ifodalanishida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi maishiy leksikaning lingvomadaniy aspektlarini

ochib berish va ularning tilshunoslikdagi o'rnini yoritishdan iborat. Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyatning o'zaro ta'sirini o'rganadigan fan sohasi bo'lib, unda til birliklari madaniy ma'no tashuvchisi sifatida talqin qilinadi [Maslova:2001,18]. Maishiy leksika esa kundalik hayot bilan bog'liq bo'lgan, xalqning yashash tarzini ifodalovchi leksik qatlamdir. [Gafurova L.:1991,18].

Maishiy leksik birliklar o'zida nafaqat predmet yoki hodisaning nomini, balki unga bo'lgan milliy munosabatni ham mujassamlashtiradi. Masalan, ayrim taom nomlari yoki kiyim-kechak atamallari muayyan xalq madaniyatiga xos bo'lib, boshqa tillarda to'liq ekvivalentga ega emas. Bu holat maishiy leksikaning lingvomadaniy ahamiyatini yanada oshiradi .

Maishiy leksika tushunchasining nazariy talqini: Ilmiy adabiyotlarda maishiy leksika “kundalik turmush ehtiyojlarini ifodalovchi, umumiste'molga xos, nutqda yuqori chastotaga ega bo'lgan leksik birliklar majmuasi” sifatida ta'riflanadi. Ushbu leksik qatlam quyidagi asosiy xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- semantik jihatdan konkretlik;
- funksional jihatdan nutqiy faollik;
- ijtimoiy-madaniy jihatdan milliylik;
- tarixiy jihatdan nisbatan barqarorlik, ammo dinamik rivojlanish.

Maishiy leksika til tizimida leksik-semantik maydonlar asosida shakllanadi va o'zaro paradigmatic hamda sintagmatik munosabatlarga kirishadi. Shuningdek, maishiy leksika lingvomadaniy va kognitiv jihatdan boy qatlam hisoblanadi, chunki u milliy mentalitet, qadriyat va urf-odatlarini ifodalaydi.

Maishiy leksikaning til tizimidagi o'rni: Maishiy leksika tilning aktiv, markaziy va ko'p qirrali leksik qatlamini tashkil etadi. Uning asosiy o'rni quyidagilardan iborat:

1. Kommunikativ ahamiyati – maishiy leksika kundalik nutqning asosini tashkil qiladi va odamlar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlaydi.
2. Madaniy ahamiyati – milliy urf-odat va qadriyatlar maishiy leksika orqali uzatiladi; masalan, “palov”, “choyxona”, “mehmonnavozlik” so'zlari o'zbek xalqining madaniy kodini aks ettiradi.
3. Tarixiy ahamiyati – maishiy leksika tarixiy hayot tarzini o'rganishda manba sifatida xizmat qiladi; ba'zi so'zlar eskirgan bo'lsa-da, ular til tarixini yoritishda muhim.

Dinamik xususiyati – jamiyat va texnologiyalar rivojlanishi bilan maishiy leksikaga yangi birliklar kirib keladi, masalan, “muzlatkich”, “kir yuvish mashinasi” [Teliya:1996,40]

Leksik qatlamlar tizimidagi mavqei: Til lug'at tarkibida maishiy leksika:

- umumiste'mol leksikasining markaziy qismini tashkil etadi;
- terminologik, kitobiy va rasmiy uslubga nisbatan ustuvorlikka ega;
- og'zaki nutq va badiiy matnlarda keng qo'llaniladi.

Ushbu leksik qatlam kommunikativ samaradorlikni ta'minlovchi asosiy vosita bo'lib, tilning yashovchanligini belgilaydi.

Maishiy leksikaning lingvomadaniy xususiyatlari: Maishiy leksika insonning kundalik dunyoqarashi va mental modeli bilan chambarchas bog'liq. U konseptual tahlil nuqtayi nazaridan quyidagi vazifalarni bajaradi:

- kundalik hayotdagi bazaviy konseptlarni ifodalaydi (“uy”, “oila”, “ovqat”);
- milliy mentalitet va qadriyatlarni lingvistik shaklda modellashtiradi;
- konseptual metafora va ramziy vositalar yordamida boyitiladi.

Shu bilan birga, maishiy leksika til va madaniyatning uzviy bog'liqligini namoyon etadi va milliy madaniyatni til orqali saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Tilshunoslik fanida tilning leksik tarkibini o'rganishga katta e'tibor qaratiladi. Leksika borliqni bevosita yoki bilvosita aks ettiradi, jamiyatning ijtimoiy, moddiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlarga faol munosabat bildiradi hamda yangi predmetlar, hodisalar, jarayonlar va tushunchalarni nomlash zarurati tufayli doimiy ravishda yangi so'zlar bilan boyib boradi [Teliya:1996,42]. Xususan, moddiy ishlab chiqarishning, fan va texnika sohalarining kengayishi va takomillashuvi natijasida yangi maxsus so'zlar — terminlar yoki butun terminologik qatlamlar vujudga keladi. Bunday birliklar ko'pincha umumiste'mol leksikasi tarkibiga o'tadi, bu esa, jumladan, til egalari umumiy savodxonligi va ilmiy xabardorligining oshishi bilan bog'liqdir.

Til leksikasida til jamoasi doirasidagi ijtimoiy-sinfiiy, kasbiy va yoshga oid farqlar, shuningdek, til egalarning turli hududiy dialektlarga mansubligi o'z ifodasini topadi hamda nutqning o'ziga xos mahalliy xususiyatlari saqlanib qoladi. Leksikani tadqiq etish nominatsiya muammolarini hal etishga ham yo'l ochadi. Shuningdek, leksikaning semantik tomonini, so'z ma'nolarining murakkab o'zaro munosabatlarini va ularning mazmuniy tuzilmasini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi .

Leksikani tizimli tavsiflash maqsadida tilshunoslar turli usullardan foydalanadilar, ulardan biri til leksikasini turli so'z guruhlari asosida o'rganishdir. Maishiy leksika ham shunday tematik guruhlardan biri bo'lib, uning tadqiqiga turli tillar materialida bag'ishlangan qator ilmiy ishlar mavjud. Ushbu leksik qatlam tillarning turli sheva va lahjalarida eng batafsil o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlar asosan tahlilga jalb etilgan material hajmi va qamrovi bilan bir-biridan farqlanadi. “Maishiy leksika” termini til lug'at tarkibidagi muayyan leksik qatlamni ikki asosiy nuqtai nazardan tavsiflaydi. Birinchidan, u inson hayoti va faoliyatining muhim sohasi bo'lgan maishiy turmush bilan bevosita bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, moddiy madaniyat va maishiy hayotni ifodalovchi boshqa leksik guruhlardan farqli ravishda, predmetlarni emas, balki harakat, jarayon, sifat, holat va shu kabi tushunchalarni ifodalovchi birliklarga nisbatan ajratib ko'rsatiladi.

Mazkur leksik qatlam etnografik nomlar doirasiga mansub bo'lib, etnografizmlar muayyan xalq, elat yoki hududning maishiy hayoti, moddiy va ma'naviy madaniyati bilan bog'liq bo'lgan predmetlar hamda tushunchalarni ifodalovchi o'zlar sifatida talqin qilinadi. Tilshunoslikda etnografizmlar umumtil

(umumxalq) etnografizmlari va etnografik dialektizmlarga ajratilib o'rganiladi [Karimov:2018,27].

Maishiy leksika orqali xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va mentaliteti namoyon bo'ladi. Kundalik hayotda ishlatiladigan so'z va iboralar madaniy tajriba natijasida shakllanadi va avloddan-avlodga til orqali uzatiladi. Shuning uchun ham maishiy leksikani o'rganish milliy madaniyatni chuqurroq anglash imkonini beradi [6].

Masalan, o'zbek tilidagi maishiy birliklar mehmondo'stlik, oila qadriyatlari va jamoaviylik tushunchalarini aks ettiradi. Bu birliklar xalqning ijtimoiy hayotidagi ustuvor tamoyillarni ifodalovchi madaniy belgilar sifatida qaraladi.

Maishiy leksika tarjima jarayonida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki u ko'pincha madaniy jihatdan belgilangandir. Bunday birliklarni tarjima qilishda faqat lug'aviy ma'no emas, balki madaniy kontekst ham hisobga olinishi lozim [Brown,2007:73]

Shuningdek, xorijiy tillarni o'qitishda maishiy leksikani lingvomadaniy yondashuv asosida o'rgatish o'rganuvchilarda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga yordam beradi. Bu esa tilni nafaqat aloqa vositasi, balki madaniyatni anglash vositasi sifatida o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari

Ushbu tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi maishiy leksika birliklari tahlil qilindi. Tadqiqot materiallari sifatida asosiy maishiy leksika doirasidagi so'zlar, frazeologizmlar, maqollar va iboralar tanlandi.

Qo'llanilgan usullar:

1. Qiyosiy-Taqqoslash usuli: Ingliz va o'zbek tillaridagi maishiy leksik birliklar o'rtasidagi semantik va madaniy o'xshashlik hamda farqlarni aniqlashda qo'llanildi.
2. Lingvomadaniy tahlil usuli: Maishiy birliklar orqali har bir xalqning mentaliteti, tarixiy tajribasi va ijtimoiy qadriyatlar tizimini aks ettirish mexanizmlarini o'rganish.
3. Strukturaviy-Semantik tahlil usuli: Maishiy so'zlar va iboralarning tarkibiy tuzilishini va ularning milliy madaniyatni ifodalashdagi ma'nosini tahlil qilish.

Natijalar

Maishiy leksikaning qiyosiy tahlili natijasida ikki xalqning madaniyatini aks ettiruvchi aniq farqlar va o'xshashliklar aniqlandi. O'zbek va ingliz tillarida maishiy leksikaning mazmuni va tuzilishi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi.

O'zbek tilidagi maishiy so'zlar asosan madaniyat, jamoaviy turmush va oila qadriyatlari bilan bog'liq. Misollar: *palov, choynak, ko'rpacha, dasturxon, ayvon, mehmon*.

*To'rga o'tqazmoq* iborasi o'zbek xalqining mehmonni e'zozlash an'anasini bildiradi.

*Supa, to'r, do'ppi, ko'rpacha, mehmonxona* kabi so'zlar ma'lum bir madaniy qadriyatni ham anglatadi.

Ingliz tilidagi maishiy leksika esa industrial hayot tarzi, shaxsiy mustaqillik va qulaylik tushunchalari bilan bog'liq. Misollar: *microwave, dishwasher, privacy, bedroom, kettle, sofa.*

*Living room, fireplace, tea time, sofa* kabi birliklar inglizlar hayotidagi osoyishtalik, qulaylik va shaxsiy makon qadriyatlarini ifodalaydi.

Asosiy birliklardagi madaniy farqlar

- *Bread – non, water – suv, mother – ona, father – ota, house – uy* kabi asosiy so'zlar ikki xalq hayotida ham muhim o'rin tutadi.
- Biroq bu so'zlarning madaniy ma'nosi turlicha. Masalan, *tea* so'zi ingliz madaniyatida kunning ajralmas qismi (*tea time*) bo'lsa, o'zbek madaniyatida u mehmon kutish va samimiyat ramzi sifatida ishlatiladi.
- O'zbek tilidagi “*non topmoq*”, “*choy ichmoq*”, “*ko'rpacha yozmoq*”, “*mehmon kutmoq*” iboralari milliy hayot tarzini ifodalovchi semantik birliklardir [Abdujalilova,2025:45].
- Ingliz tilida esa “*home sweet home*”, “*a cup of tea solves everything*”, “*there's no place like home*” kabi iboralar qulaylik, osoyishtalik va uy iliqligini ifodalaydi.

Muhokama

Natijalarning ijtimoiy-madaniy talqini

Tahlil natijalari maishiy leksikaning xalq qadriyatlari tizimi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligini tasdiqlaydi:

1. Jamoaviylik vs. Shaxsiy Makon: O'zbek jamiyatida oila va jamoaviylik qadriyatlari asosiy o'rinda bo'lsa, ingliz jamiyatida shaxsiy makon (*privacy*) va mustaqillik qadriyatlari ustun turadi. Bu farq maishiy leksikada yaqqol ko'rinadi:
  - O'zbek tilidagi *mehmon, to'r, dasturxon* jamoaviy qadriyatlar va mehmondo'stlikni ifodalaydi.
  - Ingliz tilidagi *privacy, comfort, cosiness* esa shaxsiy makon va osoyishtalikni anglatadi.
2. Uy Tushunchasi: ingliz tilida “*home*” so'zi nafaqat jismoniy joyni, balki ruhiy osoyishtalik va xavfsizlikni bildiradi. O'zbek tilida “*uy*” tushunchasi esa ko'proq oila, jamoa va mehmondo'stlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Nazariy asoslar bilan bog'liqlik
  - Yana bir izlanuvchi Sh. Uralovning ilmiy maqolasida ta'kidlashicha, ikki til o'rtasidagi farq har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlari bilan chambarchas bog'liqdir.
  - Wierzbicka ta'kidlaganidek, tildagi maishiy birliklar orqali xalqning “dunyo modeli”ni anglash mumkin.

Lingvomadaniy tahlil shuni ko'rsatadiki, maishiy leksika har bir millatning qadriyat tizimini, hayot falsafasini va ijtimoiy xulq me'yorlarini til darajasida ifodalaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, til madaniyatni nafaqat ifodalaydi, balki uni shakllantiruvchi omil sifatida ham xizmat qiladi.

Maishiy leksika — insonning kundalik turmush faoliyatini aks ettiruvchi leksik qatlam bo'lib, u odamning yashash tarzi, turmush sharoiti, oila munosabatlari, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari, taomnomalar, marosimlar bilan bog'liq so'zlarni qamrab oladi. Maishiy leksika milliy madaniyatning juda qadimiy qatlamlaridan biri bo'lib, unda xalqning hayotiy tajribasi, qadriyatlari va an'analari aks etadi[Maslova,2001:22].

Til – bu inson tafakkuri, dunyoqarashi va madaniyatining eng muhim ifodachisidir. Har bir xalq o'zining ijtimoiy-madaniy hayotini, urf-odatlarini va qadriyatlarini tili orqali ifodalaydi. Shu bois til va madaniyat o'rtasidagi aloqadorlik masalasi zamonaviy tilshunoslikda eng dolzarb mavzulardan biri sanaladi. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa shu kabi tushunchalarni ifodalovchi til birliklari aynan tilning lug'at tarkibida o'z ifodasini topadi. Ana shunday lug'at tarkibining muayyan bir qismini maishiy tushunchani ifodalovchi til birliklari tashkil etadi. Maishiy leksika kundalik turmushimiz bilan bog'liq so'zlar majmuyi hisoblanadi. Til jamiyatning madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisadir.

Har bir xalqning turmush tarzi, qadriyatlari, urf-odatlarini, dunyoqarashi avvalo tilida, xususan, maishiy leksikasida o'z aksini topadi. Maishiy leksika xalqning kundalik hayotida eng ko'p qo'llanadigan so'zlar majmui bo'lib, ularning orasida kiyim-kechak nomlari alohida o'rin tutadi. Chunki kiyim insonning ehtiyojigina emas, balki madaniy identiteti, ijtimoiy mavqei va tarixiy an'analari bilan uzviy bog'liq. Hozirgi globallashuv sharoitida turli millatlarning maishiy madaniyati, xususan kiyim madaniyati tobora bir-biriga yaqinlashib borayotgan bo'lsa-da, har bir xalqning milliy libos tizimi va kiyim nomlari o'ziga xos madaniy-semantik mazmunga ega [Akbarova,2023:23].

Ingliz va o'zbek tillaridagi kiyim-kechak leksikasining qiyosiy o'rganilishi ikki xalq madaniy tafakkurining farq va o'xshash tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa lingvomadaniyatshunoslik, qiyosiy tilshunoslik va madaniy antropologiya uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida kiyim-kechak leksikasining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash, ular orqali ikki xalq madaniy tafakkurining o'ziga xos jihatlarini ochib berishga qaratilgan.

Ingliz va o'zbek xalqlarining maishiy leksikasi ularning turmush tarziga, ijtimoiy qadriyatlariga hamda tarixiy rivojlanish bosqichlariga ko'ra shakllangan. Shu sababli ularni lingvomadaniy jihatdan o'rganish ikki xalq mentaliteti o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi esa ingliz va o'zbek tillaridagi maishiy leksikaning lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Tilshunoslikda maishiy leksikaning o'rganilishi XX asrning o'rtalaridan boshlab alohida yo'nalish sifatida shakllandi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, maishiy so'zlar tilning eng barqaror qatlamini tashkil qiladi, chunki bu leksika kundalik ehtiyojlarga bog'liq bo'lganligi sababli uzoq vaqt davomida o'z ildizini

saqlab qoladi. Maishiy leksikaning bir qancha guruhlarga bo‘linishi uning yanada keng qamrovli qo‘llanilishini anglatadi. Shu guruhlar ichidan kiyim-kechak leksikasi maishiy leksikaning muhim tarkibiy bo‘limi bo‘lib, u xalqning turmush tarzini, moddiy madaniyatini va madaniy identitetini aks ettiruvchi belgilar tizimidir. Tadqiqotning lingvomadaniy xususiyatlar bilab bog‘liqlik tomoniga ko‘ra nazar solsak, lingvomadaniyatshunoslik – til va madaniyat munosabatlarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, til birliklarida saqlangan madaniy kodlarni tahlil qiladi [Crystal,2003:18].

Har bir tilning lug‘aviy tarkibi mazkur xalq dunyoqarashining lingvistik ko‘rinishidir. Kiyim-kechak nomlarida madaniy stereotiplar, milliy urf-odatlar, tarixiy an‘analar mujassam bo‘ladi. Masalan: o‘zbekchada “do‘ppi” – milliylik, erkaklik, marosimiylik belgisini anglatgan bir paytda; ingliz tilidagi “kilt” so‘zi – shotland an‘analari va milliy identitet ramzi bilan bog‘liq belgilar tizimi [Hanks,2003:50].

Shu sabab kiyim nomlari lingvomadaniy tadqiqot uchun ahamiyatli hisoblanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida kiyim nomlarining leksik-semantik xususiyatlari ko‘rib o‘tsak.

Har ikki tilda kiyim nomlari semantik guruhlar asosida tizimlashtiriladi:

- \* bosh kiyimlar
- \* ust kiyimlar
- \* milliy liboslar
- \* oyoq kiyimlari
- \* aksessuarlar

O‘zbek tilida milliy elementlar ko‘p (lozim, atlas ko‘ylak, chapan, telpak, do‘ppi), ingliz tilida esa zamonaviy va tarixiy elementlar (hoodie, gown, cloak, kilt, tuxedo).

Xulosa qilib aytganda, maishiy leksika lingvomadaniy tadqiqotlarning muhim obyektlaridan biridir. U xalqning kundalik hayoti va milliy madaniyatini til orqali aks ettiradi. Maishiy leksik birliklarni tizimli va madaniy kontekstda o‘rganish tilshunoslik, tarjimashunoslik va til o‘qitish sohalarida samarali natijalarga olib keladi.

Amaliy jihatdan, maishiy leksikani o‘rganishda lingvomadaniy sharhlar, milliy madaniyatga oid izohlar va qiyosiy tahlildan foydalanish tavsiya etiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001.
2. Gafurova L.X. O‘zbek tilining maishiy leksikasi.-Toshkent:Fan,1991.
3. Телия В.Н. Русская фразеология в контексте культуры. – Москва, 1996.
4. Karimov A. Til va madaniyat munosabatlari. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson, 2007.



6. Abdusalilova, M. (2025). \*Linguistic study of household vocabulary in English and Uzbek languages\*. Goodwood Journal of Linguistics, 12(3), 45–59. [<https://goodwoodpub.com/index.php/jictl/article/view/3428>](<https://goodwoodpub.com/index.php/jictl/article/view/3428>)
7. Akbarova, N. (2023). \*Lexical-semantic field of household appliances: Synonymy and polysemy in English\*. International Conference on Language and Linguistics, 3(1), 19–31. [<https://interonconf.org/index.php/usa/article/view/4726>](<https://interonconf.org/index.php/usa/article/view/4726>)
8. Crystal, D. (2003). \*The Cambridge Encyclopedia of the English Language\* (2nd ed.). Cambridge University Press.
9. Hanks, P. (2013). \*Lexicography and corpus linguistics\*. In R. P. Fawcett & J. B. McArthur (Eds.), \*The Routledge Handbook of Lexicography\* (pp. 45–66). Routledge.